



**Yangi tipdagi 5-7-sinf ona tili darslarida ideonimlarni o‘qitish
va o‘rgatishga doir bilim, ko‘nikma va malakalar sirasi**

Xolmatjonova Moxinur Sherzodbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti o‘zbek tili
va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi tipdagi 5-7-sinf ona tili darsliklaridagi ideonimlar, gemeronim, biblionim va artionimlarning lug‘aviy-leksik ma’nolari va kontekstda tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: onomastika, ideonim, gemeronim, artionim, biblionim, sinkveyn,

Barchamizga ma’lumki, so‘nggi yillarda ta’lim tizimimizda turli islohotlar, yangi an’analar kirib kelmoqda. Islohotlarning bir qanchasi ta’lim tizimini tashkil etish yoki nazorat qilish, o‘qituvchilar faoliyatini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lsa, yana bir qanchasi har bir fan darsliklarini yangilash, hozirgi zamon talablariga moslashtirish, ayniqsa, jahon ta’lim standarti talablariga javob beradigan qilish bilan bog‘liq. Mamlakatimizda oxirgi 5 yillikda maktab o‘quv darsliklari bir necha bor yangilandi. Bu, albatta, Respublika ta’lim markazi va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamkorligida, jamoatchilik bilan kelishilgan holda amalga oshirildi. Hozirgi kun yoshlari ham uyda o‘tirgan holda dunyoning istalgan burchagida sodir bo‘layotgan voqealarni onlayn kuzatish imkoniyatiga ega, ya’ni virtual borliq va olam insoniyatning ajralmas bo‘lagiga aylandi. Jamiyatda sodir bo‘layotgan bunday o‘zgarishlar darsliklar masalasini



qayta ko‘rib chiqish zaruratini ham yaratdi. “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan, ta’lim- tarbiya tizimidan boshlanadi” degan g‘oya ostida amalga oshirilayotgan loyihalarni hayotga tatbiq etishda darsliklarning o‘rni beqiyos. Milliy darsliklar tizimini yaratish sohasida juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Darsliklarni zamon bilan hamnafas tarzda yangilash, takomillashtirish masalasini hal qilish uchun bir qator tilshunos olimlar, kuchli pedagog va metodistlar o‘zining rivojlangan ta’lim tizimi bilan mashhur bo‘lgan jahon mamlakatlari(xususan, Finlandiya, Singapur) o‘quv dasturlari va darsliklarini o‘rganish orqali hal qilishga harakat qildilar. Buning samarasi o‘laroq, 2022-yilda umumta’lim maktablarining 5-6-7-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ona tili darsliklari yangilandi. Bundan avvalgi darslik 2020-yilda nashr etilgan edi. Darsliklarning bunday tez muddatda yangilanishi, ayniqsa, so‘nggi nashr boshqalaridan tubdan farq qilishi ko‘p o‘quvchilar va hatto o‘qituvchilarni ham biroz hayron qoldirgani sir emas. Ko‘plab pedagoglar yangi tipdagi darsliklarni uncha xushlamadi. Eski tipdagi ona tili darsliklarida tilni o‘rganish faqatgina quruq qoidalarini yod olish, kitobdagi to‘rtburchak ramkalar ichidagi ilmiy ta’riflarni yod olish bilan ekanligi uchu o‘quvchilar ulardan nutqda deyarli foydalana olmas, ba’zida nimani o‘qiganliklarining mohiyatini tushunmas edilar. Biroq yangi zamonaviy darsliklar grammatika faqatgina nazariya uchun emas, o‘quvchilarni o‘z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalashga o‘rgatish uchun kerakligini isbotladi. Xususan, yangilangan 5-sinf ona tili darsligi haqida bildirilgan quyidagi fikrlar juda o‘rinlidir: “Bugungi kunning eng global muammosi butun dunyoda sodir bo‘layotgan inson va tabiat o‘rtasidagi ziddiyatlar, odamlarning aralashuvi asosida tabiatda ro‘y berayotgan noxush vaziyatlar, suv toshqinlari, sunamilar, dahshatli qurg‘oqchilik va ocharchilik oqibatida minglab yosh bolalarning bevaqt o‘limi, havoga zararli gazlarning tarqalishi natijasida ozon qatlamining yemirilayotgani, Orol dengizi muammosi va uning oqibatida bizning jannatmakon yurtimizda ham cho‘llashish jarayoni tezlashgani, Orolni asrab qolish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, chiqindilarni qayta ishlash jarayoni, o‘rmonlarning



kesilishi, foydali qazilmalarning tobora kamayib borayotgani, insoniyatning kosmosni zabt etishga qaratilgan ishlarining foydasi va zararli jihatlari, odamzotning turli tajribalari, havoning global isishi natijasida yuzaga kelgan viruslar muammosi, ayniqsa, bugun butun dunyo aholisining diqqat markazidagi eng dahshatli vaziyat bo‘lib qolmoqda. Bu borada dunyo bolalarining, xususan, Greta Tunbergning BMTda so‘zlagan nutqi diqqatga sazovor. Bu matnlarni o‘qir ekan, o‘quvchi yoshlar tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, uni asrab – avaylash haqida yetarlicha tushunchaga ega bo‘ladilar. Tabiatni asrash haqida muhim taklif va mulohazalarni o‘rtaga tashlab, muammolarni yechish yo‘llarini izlab ko‘radilar”¹

Endi tadqiqot mavzuyimizga qaytsak. K.Mavlonova, S.Qo‘ldosheva, N. Hakimova, M. Siddiqovlar muallifligidagi 2024-yil “Novda” nashriyotida chop qilingan yangi tipdagi zamonaviy ona tili darsligidagi ideonimlarni tadqiq qilsak. Eng avvalo, darslikning 10-betidagi mashqqa diqqat qilsak.



12. “Sinkveyn” topshirig‘i. Berilgan so‘zlardan 2 tasini tanlang. Yo‘riqnoma va namuna asosida topshiriqni bajaring.

Yo‘riqnoma:

1-qatorga bitta so‘z (ot) yoziladi.
2-qatorga kalit so‘zga mos ikkita sifat yoziladi.
3-qatorda mavzuga oid xatti-harakat uchta so‘z orqali ifodalanadi.
4-qatorga to‘rtta so‘zdan iborat gap yoziladi.
5-qatorga kalit so‘zning ma‘nodoshi yoziladi.

Namuna

Vatan

aziz, jonajon

jonajon Vatanni sevmok

Men jonajon Vatanimni sevaman.

yurt

¹ Z. I. Usmanova, Academic Research in Educational Sciences



Ushbu topshiriq nomida qatnashgan “Sinkveyn” o‘yin nomi. Ushbu o‘yinning mohiyati shundan iboratki, bu ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish) ga yordam beradigan qofiyalanmagan she’r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to‘g‘risidagi axborot yig‘ilgan holda, o‘quvchi so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi². O‘yin mohiyatini tushuntirish uchun o‘quvchiga ushbu metod nomining tarjimai va izohini ham bildirish lozim. Fransuz tilida “Sinq” so‘zining ma’nosi “besh”dir. Ya’ni o‘quvchi bu metod orqali bir tushunchani 5 xil usulda ifoda qiladi. Avvaliga bir so‘z bilan, keyin ikki, uch, to‘rt so‘z bilan va oxirgi beshinchi qadamda so‘zning ma’nodoshi(bitta so‘z bilan) yoziladi. Demak, “Sinkveyn” ideonimining o‘rganilishi o‘quvchilarga birvarakayiga o‘yin mohiyatini tushunish, chet tilidagi bilimlarini boyitish yoki mustahkamlash kabi imkoniyatlarni beradi. O‘quvchi bu ideonimni eslab qolsa, unda kelgusida uchrovchi atamalar yoki boshqa ideonimlar tarkibida “sink” so‘zi kelsa, uni tezroq va aniqroq anglashiga yordam beradi.



2. Berilgan qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishing. Ularning qaysi fan (matematika, tabiiy fanlar) yoki soha (tibbiyot)ga oid ekanini yozing.

Qiziqarli ma’lumotlar	Fan / soha
1. Eng oddiy teleskop truba va ikkita maxsus shisha, ya’ni linzalardan iborat bo’ladi.	...
2. Cho’ldagi eng dahshatli va mudhish hodisa samum deb ataluvchi shamoldir. Bu shamol esganda cho’l kuylayotganga o’xshaydi.	...
3. 1 dan 100 gacha bo’lgan jami sonlar yig’indisi 5050 ga teng.	...
4. “Lunoxod-1” kosmik apparati Oy sathida 10 kilometrdan ortiq masofani bosib o’tgan va ma’lumot to’plagan.	...

² O. Qudratova, kopilkaurokov.ru
sayti(https://kopilkaurokov.ru/nachalniyeKlassi/uroki/ona_tili_darslarida_sinkveyn_usulini_qollash_haqida)



Keyingi ideonimimiz yuqoridagi topshiriqda keltirilgan “Lunoxod-1” kosmik kemasi nomi. Ushbu soʻz ham inson aqliy salohiyatining mahsuli sifatida ideonimlarga misol boʻla oladi. Bu soʻz ruscha “Лунa” – “oy” va “ход” – “yurmoq” soʻzlaridan olingan boʻlib, “oyda yuruvchi” degan maʼnoni bildirib, u tarixdagi birinchi muvaffaqiyatli avtomatik sayyoralararo apparat. Demak, ideonim nomini toʻgʻri anglashoq uning qanday ixtiro ekanligini bilishga kifoya qiladi.

Darslikning 53- sahifasida berilgan matnda hammamizga tanishdek tuyuluvchi “ertak” ideonimi berilgan. Bu hozirgi kunda adabiy atamaga aylanib ketgan boʻlsa-da, u ham ideonim. Sababi bu soʻz odamzodning oʻy-xayollari, kechinmalari, orzu-umidlari – umuman olganda, tafakkuri mahsuli boʻlgan uydirmaga qoʻyilgan maxsus nom. “Ertak” soʻzining maʼnosi - “aytish”, “hikoya qilish”. Bu soʻzning aynan qachon paydo boʻlganini aniqlash imkonsiz boʻlsa-da, bizdagi maʼlumotlarga qaraganda, bu soʻz Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻotit-turk” asarida “etuk” shaklida keltirilgani va bu soʻz “biror voqeani ogʻzaki hikoya qilish” ni anglatadi³.


Shuningdek, matnda oʻzbek xalq ertaklarining nomlari: “Ur, toʻqmoq”, “Ochil, dasturxon”lar ham ishtirok etadi. Ushbu nomlarning har ikkalasida ham undalma qatnashgan boʻlib, birida fikr toʻqmoqqa qaratilsa, birida dasturxonga qaratiladi. Menimcha, bu ideonimlardagi deyarli barcha soʻzlar tushunarli. Faqatgina “toʻqmoq” soʻzi haqida maʼlumot berib oʻtish, ushbu soʻzning leksik maʼnosi haqida axborot berish maqsadga muvofiq deb oʻylayman. Toʻqmoq - dastasi va uriladigan qismi koʻpincha yogʻochdan qilinadigan, bosqonga oʻxshash asbob⁴. Oʻquvchiga soʻz maʼnosini izohlash bilan birga uning rasmini koʻrsatish ham soʻzning leksik-semantik xususiyatlarini aniqroq anglashiga yordam beradi, deb oʻylayman.

³ Mahmud Koshgʻariy. Devoni lugʻotit-turk. 3 tomlik

⁴ “Oʻzbek tilining izohli lugʻati. A.Madvaliyev tahriri ostida



Keyingi so‘zimiz ideonimlarning biblionim turiga kiruvchi badiiy asar sarlavhasi. Atoqli o‘zbek hikoyanavisi Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi nomi. Chunki bu hikoyadan parcha 5-sinf ona tili darsligida ushbu hikoyadan parcha berilgan.



Bu yerda matn garchi o‘quvchilarga epigraf va uning vazifasini bildirish uchun misol tariqasida qo‘yilgan bo‘lsa-da, “Bemor” biblionimining ma‘nosi hammaga ayon. Bemor – orgaznizmning odatdagi biror holati buzilgan, kasal, xasta⁵. Nomidan ma‘lumki, hikoyada kimdir xasta, bemor. Bu ideonimni birinchi marta eshitgandagi tasavvur. Zukkoroq o‘quvchi esa hiko ya nega bunday nomlanganligiga yanayam qiziqadi va

⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati.



savolning javobini hikoya mutolaasidan keyingina bilib oladi. Bir kishining, ya'ni Sotiboldining xotinining bemorligini keltirish orqali Sotiboldining uni davolatish uchun qilgan harakatlari, lekin qo'ldan hech narsa kelmagani, kasalxonaga olib borish uchun puli yo'qligi, puli bor odamlarning yordam bermagani, bungacha Sotiboldi baxshi, azayimxon, tabibni olib kelgani, ular bemorni tuzatish o'rniga holsiz odamdan qon olishgani, demakki, aslida butun jamiyat bemor va xasta, najotga zor ekanligini ifodalagan.



An'anaviy bolalar o'yinlari

Bugun ko'cha-ko'yda to'p tepayotgan, bir-biri bilan eshakmindi o'ynayotgan bolalarni kam ko'ramiz. Aksincha, qo'lidagi telefonga muk tushib nimadir **ko'rayotgan**, virtual o'yinlarga andarmon bo'lib, yon-atrofiga **befarq** bolalarni ko'p uchratamiz. Bu bolalar 15–20 yillar avval o'z aka-opalari o'ynagan milliy o'yinlarimizni bilarmikan?

Lanka

Milliy bolalar o'yini va shu o'yin anjomi nomi. Bu o'yinning yana bir nomi – *qarabtep*. Lanka mol, qo'y terisidan dumaloq kesib olinib, unga qo'rg'oshin yoki tangani ip bilan **mahkamlab** tayyorlanadi. Bu anjomni bolalar oyoqning ich yoki tashqi tomoni bilan yerga tushirmay kim ko'p tepish bo'yicha bellashadi.

Jonkuyar

Qizlar ikki tomonda turib olib, o'rtadagi dugonasiga to'p tekkizib, safdan chiqaradigan o'yin. O'rtaga chiqqan qiz dugonalari **otgan** koptokni yo **ilib olib** "jon" yig'ishi, yo unga chap berishi kerak. Uloqtirilgan to'p ilib olinmasa yoki tananing biror joyiga tegsa, yig'ilgan "jon"lar kuyadi – bekor bo'ladi va qiz o'yindan chiqadi.

To'ptosh

Danakdek toshchalarni bexato otib-ilib, marraga **to'plashdan** iborat qizlar o'yini. Bu o'yinda toshchalardan birini otib, ikkinchisini epchillik bilan marraga surib qo'yish kerak bo'ladi. O'zi otgan toshchani ilib olmagan qiz **galni** dugonasiga o'tkazadi. O'yin toshchalarni kimdir marraga yig'ib bo'lgunicha davom etadi.



Quloqcho'zma

O'g'il bolalar o'yini. O'yinni bakovul – katta yoshli kishi boshqaradi. U ro'molchaga pul yoki boshqa **sovrinni** tugib, yuqoriga otadi. Bolalardan biri epchillik bilan uni ilib oladi va qochib ketadi. Agar (marraga borgunicha) tengdoshlari unga yetib olsa, qulog'idan cho'zib, sovrinni berishga majbur qiladi.

Xolakam

Qiz bolalarning mehmon-mehmon o'yini. Qo'qon va uning atroflarida bu o'yin *xolakam-xolakam* deb ataladi. Bu o'yinda bir necha qizlar mehmon, bittasi mezbon **rolini** bajaradi.

Bekinmachoq

Yashiringan bolalarni qidirib topishdan iborat o'yin. Shunga o'xshash o'yin Farg'ona vodiysida *yashintopaloq* deyiladi. *Yashintopaloq* kechqurun o'ynalishi bilan *bekinmachoqdan* farq qiladi.

Innana

Uzun yog'och yoki taxtani biror g'o'la ustiga muvozanatli o'rnatib, ikki boshiga ikki kishi o'tirib olib, navbat bilan ko'tarilib-tushib o'ynaladigan bolalar o'yini va shunday moslamaning o'zi.

Paqpaq

Bolalarning bir bo'lak loyni piyola shakliga keltirib, **to'ntarib** yerga urib paqillatish o'yini. Qo'qon taraflarda bu o'yin *loyporsildoq* deyiladi.

Eshakmindi

Bunda to'rtta to'ptosh olinadi va ikki-uch metr masofadan chuqurchaga otiladi. Bitta toshi tushgan bola "eshak", ikkita toshi tushgan bola "ot", uchta toshi tushgan bola "vazir", to'rtta toshi tushgan bola "podshoh" bo'ladi. Shunda "vazir" "eshak"ni, "podshoh" "ot"ni minadi. Hali to'ptosh otmagan beshinchi bola esa o'yinni **qayta** boshlaydi. Toshkentda shunga o'xshash o'yin *eshak-eshak* deyiladi. Jizzaxda bu o'yin o'n bir bola ishtirokida o'ynaladi.

Chillak

Bitta uzun, bitta kalta tayoq bilan o'ynaladigan bolalar o'yini. Chillak o'yinida kerak bo'ladigan ikki tayoqning kaltasi *chillakbola*, uzuni *chillakona* yoki *chillaksop* deyiladi. Chillakona va chillakbola tol shoxidan **tayyorlanmasa**, tezda sinib ketadi. Bu o'yinda chuqurchada turgan chillakbolani chillaksop bilan urib marraga yetkazish talab etiladi. Marraga yetkazolmagan bolaga "nafas olmay zuvullab kelish", "bir oyoqda sakrab kelish", "qurbaqadek yurib kelish" kabi biror shart aytiladi.



O‘zbek xalq milliy o‘yinlari nomlari ham atoqli ot sifatida ideonimlarga misol bo‘la oladi. Yangi tipdagi 5-sinf ona tili darsligida ham bolalar o‘yinlarining bir qancha nomlari keltirilib, ularni qanday o‘ynash haqida ma’lumotlar beriladi. Yuqorida aynan o‘sha matnni keltirdik.

Lanka. Bir qarashda tushunarsiz so‘z, chunki kundalik nutqiy faoliyatimiz davomida bu so‘zni umuman ishlatmaymiz. Chunki bu so‘z xitoy tilidan olingan⁶. Bu so‘z miliy o‘yin nomi bo‘lish barobarida bu o‘yinining asosiy predmeti nomi ham. Bu predmet hayvonlar terisining silliq tarafiga tosh, tanga yoki qo‘rg‘oshinni mahkam qilib bog‘lash bilan yasaladi. Bu o‘yinining yana bir nomi bo‘lgan “qarabtep” o‘yinining shartlari va mohiyatini ancha osonlashtiradi. Zero, bu o‘yinda ishtirokchi bolalar lankani ikki oyoqlari orasiga solib, uzoqroq joygacha yurib borishlari kerak bo‘ladi.

Jonkuyar. Bolalar o‘yinlarida to‘plangan ochko yoki yutqazganda qayta o‘ynash imkoniyati “jon” deb ataladi. O‘yin shartlarini buzgan yoki yutqazgan ishtirokchi birin-ketin “jon”laridan ayriladi. Jonkuyar koptok bilan o‘ynaladigan o‘yin bo‘lib, o‘rtada turgan qiz unga qarab otilgan to‘pni ilib olsa, “jon” yig‘adi, chap bersa, hech narsa yutqazmaydi, lekin to‘p tanasining biror joyiga tegsa, “joni kuyadi”. O‘yin shu tarzda davom etadi. Demak, o‘yin nomining qisqacha izohi va o‘quvchiga tushuntirilishi lozim bo‘lgan jihati shu – jonning nima ekanligi va u qachon kuyishi.

To‘ptosh – qiz bolalarning mayda toshlarni tashlab-olib o‘ynaydigan o‘yini va shu toshlarning o‘zi⁷. Har qanaqa turdagi ideonimlarning mazmunini o‘quvchilarga tushuntirishning eng asosiy yo‘li nomga e’tibor qaratish va har bir so‘zning leksik ma’nosiga diqqat bilan qarash. O‘yin nomi tarkibidagi *to‘p* so‘zi jamlash, yig‘ish, to‘plash ma’nolaridagi fe’l. Demak, o‘yin toshlarni qo‘l ustida to‘p qilish, ya’ni jamlash o‘yinidir.

⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati

⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati



Xolakam. Andijon viloyatining ko‘p hududlarida bu o‘yin *xola-xola* deb ataladi. O‘zbek xalqida qayerdadir uchragan begona ayolga murojaat qilish kerak bo‘lsa, uni xola deb chaqirish odati bor. Uyga kelgan mehmonni ham, ko‘pincha, shunday chaqiramiz. Bu o‘yin qizchalarning uyiga mehmon kelganda o‘zini qanday tutib, qanday kutib olish odobining qay darajada o‘zlashtirganligini namoyish qiladigan o‘yini. O‘yin nomi tarkibidagi *xola* so‘zining izohlanishi ideonim ma’nosini to‘liq izohlab bera oladi, deb o‘ylaymiz.

Yashintopaloq. Ushbu ideonim nomini izohlash va o‘quvchiga tushuntirish uchun, avvalo, yashinning nima ekanligini bildirish kerak. Yashin – chaqmoq. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “yaraqla” ma’nosini anglatgan yashī fe’liga -n qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan. O‘zbek tilida a unlisi ä unlisiga almashgan, i unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: yashī- + n = yashīn > yāshin. O‘yin berkinmachoqqa o‘xshaydi. Farqi shundaki, bu o‘yin qorong‘ida o‘ynaladi. *Yashintopaloq* deb nomlanishiga ham sabab shu : yashin tunda paydo bo‘ladigan hodisa. Bolalar qorong‘ida berkingan ishtirokchilarni, ya’ni yashinlarni topishlari kerak bo‘ladi.

Innana. Bolalar bu o‘yinning qanday o‘ynalishini bilishsa-da, nomini uncha yaxshi bilishmaydi. Innana – tosh ustiga uzun yog‘och qo‘yib, uning ikkala tarafiga o‘tirib o‘ynaladigan o‘yin. Bu o‘yinning nega aynan bunday nomlangani sababi haqida ilmiy adabiyotlarda ma’lumot topilmadi. Bunday holatlarda ideonimning tub ma’nosi topilmagan hollarda ularga o‘yinlarning rasmini ko‘rsatib, so‘zning semantik ma’nosida aks etgan jarayonni ko‘rsatish lozim.



Paq-paq. Taqlid soʻzdan yasalgan ushbu soʻz oʻyin davomida chiqadigan tovush nomidan olingan. Baʼzi hududlarda *loyporsildoq* yoki *porsildoq* deb ham nomlanadi. Bolalar loyni dumaloq qilib, oʻrtasini yupqaroq qiladilar(xuddi non yasalishiga oʻxshab ketadi) va uni qoʻllariga olib, teparoqdan yerga zarb bilan uradilar. Kimning loyi yorilsa, oʻsha gʻolib boʻladi.

Shuningdek, 5-sinf ona tili darsligida bir qator gemeronimlarning ham nomi zikr etib oʻtiladi. Gemeronim deganda, gazeta, jurnal va boshqa ommaviy nashrlar nomlari tushuniladi. Bular: “Gulxan” jurnali, “Gʻuncha” jurnali, “Kichkintoy eksiklopediyasi”, “Tong yulduzi”.

“Gulxan” - adabiy-badiiy, bezakli bolalar jurnali. Muassislari: Oʻzbekiston Respublikasi Davlat matbuot qoʻmitasi, Oʻzbekiston Xalq taʼlimi vazirligi(hozirgi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi), Oʻzbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati. Oyda 1 marta chiqadi. Dastlab “Yosh kuch” (1929–41) nomi bilan chiqqan, 1941-45 yillardagi urush sababli jurnalni chop etish vaqtincha toʻxtatilgan. Soʻngra “Pioner”(1952-57) nomi bilan nashr qilingan. 1957-yildan hozirgi nomda. “Gulxan” sahifalarida Oʻzbekiston bolalari hayoti, ularning orzu-intilishlari, shuningdek, badiiy adabiyot, sanʼat, xalq ogʻzaki ijodi, turli sport oʻyinlari muntazam yoritilib boriladi. “Gulxan” kutubxonasi seriyasida bolalar ijodidan kitobchalar ham



chiqariladi. Jurnalga turli yillarda G‘ani Jahongirov, Jumaniyoz Jabborov, To‘lqin Kozoqboyev, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Abdulla Oripov, Safar Barno va boshqalar muharrirlik qilishgan⁸.

“G‘uncha” — boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan jurnal. Muassisi: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi(hozirgi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi), O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati. 1958-yil yanvardan nashr etiladi. G‘afur G‘ulom tashabbusi bilan “G‘uncha” deb atalgan. Jurnal 4 xil rangli bo‘lib, uning sahifalarida bolalar ijodi, talantli va taniqli yoshlar va kichkintoy sportchilar hayotidan hikoyalar, jahon bolalar yozuvchilari ijodidan namunalar ham berib boriladi, o‘zbek ijodkorlarining kichkintoylarga atalgan asarlari bosiladi. Bundan tashqari, “G‘uncha” sahifalarida bolalar uchun turli topshiriqlar, boshqotirmalar berib turiladi, tanlovlar o‘tkaziladi. Bizningcha, ushbu nashrning “G‘uncha” deb nomlanishiga sabab uni kichik yoshdagi bolalar o‘qishi. G‘afur G‘ulom bunday nom berishda bolalarni G‘unchaga qiyoslagan. Insonlar gul bo‘lsa, bolalar g‘unchadirlar. Qolaversa, jurnalda bolalar ijodi namunalarining berilishi orqali bolalarning kashf qilinishini, bizningcha, g‘unchaning ochilishiga o‘xshatgan bo‘lsa, ajab emas.

“Tong yulduzi” - bolalar va o‘smirlar gazetasi. Muassis – [O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi](#). Har oyda bir marta chiqadi. Birinchi soni [1929-yil 1-avgustda](#) Samarqandda „Lenin uchquni“ nomi bilan chiqqan (3000 nusxada); [1931-yildan](#) Toshkent shahrida chop etiladi. [Ikkinchi jahon urushi](#) yillari gazetani nashr etish vaqtincha to‘xtatilgan. [1946-yil](#) 1-iyuldan yana nashr qilina boshlagan. [1992-yildan](#) hozirgi nomda. Gazetaga turli davrlarda Hotam Qirg‘iz, Y.Shamsharov, Sanjar Tilla, Ramz Bobojon, G‘.Jahongirov, S.Yo‘ldoshev, J.Razzoqov, A.Ko‘chimov, A.Berdimurodov va boshqa muharrirlik qilishgan. Sahifalarida [O‘zbekistondagi](#) maktab o‘quvchilari

⁸ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gulxan>



hayotiga oid maqola va xabarlar, ular ijodidan namunalar, bolalar uchun badiiy asarlar va boshqa bosiladi⁹.

Gameronimlar haqida ham to'liq ma'lumot berilishi o'quvchining dunyoqarashi o'sishiga, bilimlarining boyishi, nutqining boyishi va albatta, nutqiy kompetensiyalarining oshishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 5-sinf ona tili darsligi. K.Mavlonova, S.Qo'ldosheva, N.Hakimova, M.Siddiqov. "Novda" 2024-yil
2. 6-sinf ona tili darsligi. I. Azimova, K.Mavlonova 2022-yil "Novda" nashriyoti
3. 7-sinf ona tili darsligi. darsligi I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova va M. Siddiqov. 2022-yil "Novda" nashriyoti
4. "O'zbek tilining izohli lug'ati"
5. Wikipedia va boshqa internet ma'lumotlari

⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Tong_yulduzi